

TTPUda stol tennisi bo'yicha master klass o'tkazildi.

Joriy yilning 19 may kuni, O'zbekiston stol tennisi Federatsiyasi tomonidan universitet talaba-yoshlari o'rtasida stol tennisi bo'yicha maxorat darslari (master klass) tashkil etildi. Tadbirda Xalqaro Olimpiya o'yinlariga tayyorlash boshqarma boshlig'i Burxonxo'jaeva Nodira Saidikramovna, Toshkent shahar stol tennisi bo'limi ijrochi direktori Melikuziev Akbar hamda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya instituti talabalari – bir qator xalqaro va respublika musobaqa g'oliblari ishtirok etishdi. N.Burxonxo'jaeva yoshlar o'rtasida stol tennisini ommalashtirishda O'zbekiston Federatsiyasining o'rni va rivojlanishi to'g'risida so'z yuritib talabalarni stol tennisi bilan kuproq shug'ullanishga chorladi. Yosh sportchilar universitet talabalariga maxorat darslarini o'tkazib turli o'yin uslublarini qo'llashni taqdim etdilar hamda ular bilan o'zaro bellashdilar. O'tkazilgan maxorat darslari talabalarda stol tennisga bo'lgan qiziqishlarini yanada uyg'otdi va kelgusida musobaqalarni hamkorlikda tashkil etishga kelishildi.







